

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Tadbirkorlik menejmenti		
Fan kodi: TDM3604	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 4	davomiyligi: 6 semestr
Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: 60411200 Menejment (kimyo va oziq – ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Aliyeva Janat Askarovna		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 120	Email: alievajanat747@gmail.com	
Fan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Aliyeva Janat Askarovna		
Prerekvizitlar: Ixtisoslikka kirish, Menejment, statistika.		Tanlov turi: Tanlov fan
<p>Fanning qisqacha bayoni talabalarga zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkilot va korxonalar tashkiliy tuzilishining optimal variantlarini tanlash, kompaniya imkoniyatlarini qanday tan olish va baholash, bozor tadqiqotlarini o'tkazish, missiya bayonoti, marketing strategiyasi, operatsion strategiya va moliyaviy strategiya bilan biznes-rejani tuzish, yangi korxonalar tashkil etish va kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kabi kompetensiyalarni shakllantirishini o'rgatadi.</p>		

Fanning maqsadi: Talabalarda yangi biznesni rejalashtirish, boshlash va yuritish bilan bog'liq bosqichlarni to'liq tushunishga yordam berishdir. Talabalar ma'ruzalar, amaliy tadqiqotlar va amaliy o'quv mashg'ulotlari kombinatsiyasi orqali biznes imkoniyatlarini qanday topish, texnik-iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish, biznes rejalar tuzish, mablag' olish va o'sish strategiyalarini amalga oshirish, natijalarini tahlil qilish va baholash bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat..

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- biznes va uni boshqarish xakida; moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar haqida; xalqaro biznesning tashqi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy muhiti haqida; xalqaro biznesning tashkiliy-huquqiy shakllari haqida; xalqaro kompaniyalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish asoslari haqida; xalqaro kompaniyalarni boshqarish nazariyasi va usullari haqida; xalqaro kompaniyalarning davlat bilan munosabatlari haqida; O'zbekiston Respublikasining bu sohada qabul qilingan davlat va hukumat qarorlari va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida **haqida tassavvur ega bo'lishi;**

- fikrlash, tadbirkorlik sharoitlariga tez moslashish; xalqaro biznesning tashqi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy muhitini tahlil qilish; firmaning xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini o'rganish, baholash va asoslab berish; xorijiy tadbirkorlik uchun mamlakatni va chet ellik hamkorni tanlay olish; xorijiy tadbirkorlar bilan samarali muomala qilish; xalqaro menejmentda hamkorlikning eng ratsional uslub va ko'rinishlarini aniqlay olish **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;**

- korxonalar, tashkilotlar, vazirliklarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tashkil etish va boshqarishning ilmiy uslublaridan; xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy aktlar va normativ hujjatlardan; xalqaro iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning ko'rinishlari, usullari va xususiyatlaridan; xalqaro va qo'shma korxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslaridan foydalanish **malakalarga ega bo'lishi kerak.**

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlarda nazariy bilimlar mavzuga oid masalalar yechish orqali mustahkamlanadi. Tovarlarini xalqaro savdoda sinflash va sertifikatlash fanini chuqur o'zlashtirish uchun talaba fanning har bir bo'limini mustaqil o'rganishi va ko'p variantli masalalar yechish orqali mustahkamlashi zarur. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor – o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar o'tilgan ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar, berilgan mavzulardan mustaqil ishlar bajaradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

Mustaqil ta'lim

Talabani Tovarlarini xalqaro savdoda sinflash va sertifikatlash fanidan chuqur bilim olishidagi mustaqil ta'lim ishining asosiy maqsadi – bo'lajak mutaxassislarni dunyoqarashini, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bo'yicha salohiyatini oshirish, ular ongida milliy g'oya asoslarini shakllantirish; kafedra jamoasi rahbarligi va uzluksiz nazorati ostida talabada muayyan o'quv vazifasi va topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

Uy vazifalarini bajarish, qo'shimcha darslik va boshqa o'quv adabiyotlarini mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni axborot resurs markazlaridan izlash, internet tarmoqlaridan foydalanib fanga oid rus, ingliz va boshqa chet tillarida chop etilgan adabiyotlarni elektron nusxalarini to'plash, shular asosida mavzuga oid taqdimotlar tayyorlash va o'tkazish; salohiyatli professor-o'qituvchilar rahbarligida laboratoriya ishlarini vertual stendlarini yaratish; ilmiy-ijodiy to'garaklar doirasida ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruza tezislarni tayyorlash.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o'zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o'z aksini topadi. Shu sababli baholash tizimida mustaqil ishlarga alohida baho ajratilmaydi, ular JB, OB va YaB baholari tarkibiga kiritilgan.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni.	2	2	6
2	Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari.	2	2	6
3	Tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.	2	2	6
4	Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish.	2	2	6

5	Tadbirkorlikda marketing faoliyatini tashkil etish.	2	2	6
6	Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish.	2	2	6
7	Tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilik-ning o'rni.	2	2	6
8	Tadbirkorlik faoliyatida xodimlarni tanlash va o'qitish.	2	2	6
9	Tadbirkorlarning ahloqiy qoidalari	4	4	8
10	Tadbirkorlik menejmentida axborot va kommunikatsiya	4	4	8
	Jami	24	24	72

Asosiy adabiyotlar

1. Xo'djamuratova G.Y., Azlarova M.M. Menejment. Marketing. Darslik.-T: Iqtisodiyot, 2019. - 358 b.
1. Boltaboyev M.K., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. "Kichik biznes va tadbirkorlik" O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisodiyot" - 2012 y.- 289 b..
2. N.Q. Yo'ldoshev. Menejmentga kirish. Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2021 y. -392 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. N.Q. Yo'ldoshev, G.E. Zaxidov. Menejment. Darslik. -T: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018 y. -392 b..
2. Raximova D.N., Abdulqosimov X.P., Abduraxmonov O.K. Boshqaruv tizimi va rahbar.- T.: TDTU., 2004. – 228 b.

Axborot manbalari

3. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali
4. www.lex.uz. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar milliy bazasi
5. www.minecono my .uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
6. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
7. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo' mitasi)
8. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
9. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
10. www.standart.uz (Uzstandart agentligi)
11. www.smsiti.uz (Standartlar institute)
12. www.uza.uz (O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti)

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Chorshanba	11.00-13.00	306
2.	Juma	14.30 – 16.00	306